

O'SIMLIK DAVRIDAGI O'ZINI-O'ZI ANGLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: O'ZINI QADRLASH VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Alimova Rohila Olimjon qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali

Psixologiya yo'nalishi 1-bosqich 25-09 guruh talabasi

Xalimjanov Abduqunduz Rahimjon o'g'li

"Kompyuter Injining va raqamli texnologiyalar"

kafedra o'qituvchisi

Email: xalimjonov1234@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17577160>

Annotatsiya: Ushbu tezisda bugungi kunga voyaga yetayotgan bizning kelajagimiz bo'lmish yosh avlodning ya'ni o'smir bolalarning o'zini o'zi anglashda, o'zlarini anglash uchun ularga qaratilgan chora tadbirlarga hamda ularning psixologiyasiga, ongiga ta'sir etuvchi omillarga bag'ishlanadi. Tadqiqotning maqsadi o'smir yoshlar bu davrda o'zini hatti harakatlarini nazorat qilishi, kimligini tushunishi, kelajakdagi hayot yo'lini anglay olishi hamda albatta ularning ota onalariga, yuklatilgan vazifalariga bag'ishlanadi. O'smirlik davrida tengdoshlarning ham o'rni juda muhim. Do'stlar va sinfdoshlarning fikri ota-onanikidan ham kuchliroq ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agar u yaxshi muhitga tushsa ijobiy xususiyatlarni o'zlashtiradi, lekin salbiy muhitga tushsa turli muammolar paydo bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Shunday ekan ularni hech qachon nazoratsiz qoldirmaslik kerak.

Kalit so'zlar: o'zini-o'zi anglash, o'simlik davri, shaxsiy xususiyatlar, ijtimoiy normalar,

O'smirlik davrida o'zini o'zi anglash, ayniqsa, o'zini qadrlash va unga ta'sir etuvchi omillar o'smirlik davriga xos xususiyatlarga ega. Bu davrda o'smirlar o'zlarining qobiliyatlari, kuchli va zaif tomonlari, shaxsiy xususiyatlari haqida fikr yuritishadi. Ularning o'zini qadrlashi ko'p jihatdan atrof-muhit (oilasi, do'stlari, maktabi) va ijtimoiy normalarga bog'liq bo'ladi.

O'zini qadrlashga ta'sir etuvchi omillar:

- **Oilaviy muhit:** Ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi, qiziqishlari va ularning o'smirlarga bo'lgan munosabati.
- **Ijtimoiy muhit:** Do'stlarining ta'siri, ularning o'smirlarga nisbatan munosabati va ijtimoiy guruhga kirishga intilishi.
- **Maktab va ta'lim:** O'qishga bo'lgan munosabat, o'qituvchilarning qo'llab-quvvatlashi va o'qituvchilarning o'quvchilik faoliyati.
- **Shaxsiy qobiliyatlar va yutuqlar:** Sport, san'at, musiqalar va boshqa sohalardagi muvaffaqiyatlari o'zini qadrlashga ta'sir qiladi.
- **Ma'naviy qadriyatlar va norma:** O'smirlar jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlar va qadriyatlarni o'ziga singdiradi.
- **Tanqidiy fikrlash qobiliyati:** O'smirlar o'zlarining xatti-harakatlari, fikrlari va tuyg'ulari haqida tanqidiy fikr yuritishni o'rganadi.

O'smirlik bu inson hayotidagi qiyin va ayni paytda muhim bosqich. Bolalik tugaydi, bola teng huquqli ishtirokchi sifatida kattalikka kirishga tayyorlanmoqda. Shubhasiz, o'smir hali jismonan yoki psixologik jihatdan haqiqiy balog'atga etmagan, ammo shunga qaramay kattalar bilan teng huquqli bo'lishga intiladi. Butun davr bolaning o'zi uchun ham, bolaning atrofidagi kattalar uchun ham katta psixologik qiyinchiliklar bilan bog'lanib keladi. Ilmiy adabiyotlarda o'smirlarning xususiyatlari juda yaxshi va to'liq ko'rsatilgan, o'smir shaxsini shakllantirishning

asosiy qonuniyatlari va xulq-atvor xususiyatlari, hissiy-irodaviy, intellectual va aqliy qobiliyatlarni o'rganishga bag'ishlangan ko'plab asarlar mavjud. Ammo shunga qaramay, atrofdagi kattalar yosh muammolari bilan yaxshi tanishemas, bu esa ushbu davrni-o'smirlikni qiyin kechishga olib keladi. Psixolog S.Xollbudavrni "bo'ron va hujumlar davri" deb atagan, shaxsiy rivojlanishda ko'plab o'zgarishlar kuzatiladi va shaxsiy beqarorlikni asosiy xususiyat deb hisoblash mumkin. Rivojlanayotgan bolaning xarakterivaxatti-harakatlaridan muvofiqlik mavjud A.Freyd o'smirlarning o'ziga xos xususiyatlarini qayd etadi:

>birinchidan, o'smirlar xudbin, o'zlarini "Olamning markazi" deb bilishadi va shu bilan birga fidoyilik va fidoyilikka qodir;

>ikkinchidan, ular ehtirosli sevgi munosabatlariga kirishadilar, lekin ular boshlanganidek, ularni birdaniga tugatishi mumkin;

>uchinchidan, ular tezda jamiyat hayotiga aralashib qolishadi va shu bilan birga yolg'izlik ishtiyoqini egalla bolishadi;

>to'rtinchidan, ular rahbarga ko'r-ko'rona bo'ysunadilar va har qanday hokimiyatga qarshi darholis yon ko'taradilar. Ba'zida ularning atrofdagi odamlarga nisbatan xatti-harakatlari qo'pol va takabbur, shu bilan birga, ularning o'zlari ham juda zaifdir.

O'smirlik davri insonni bolalikdan yoshlikka o'tuvchi davri hisoblanib, 11-16 yoshi, ya'ni 5-8sinflar oralig'iga to'g'ri keladi. Odatda 11-12yoshdan boshlanib, 16-18 yoshgacha davom etadi.

Psixologiyada esa "O'zini o'zi anglashning shakllanish davri" deb ataladi. Bu davrda bola o'zini shaxs sifatida his eta boshlaydi, o'z hatti-harakatini nazorat qilishga, kimligini tushunishga va kelajak hayot yo'lini belgilashga urinadi. O'smirlik davrida bolalar o'zini-o'zi anglashga "MEN" obrazini shakllantirishga harakat qiladi. O'smirlik davri ayrim psixologik adabiyotlarda "O'tish davri,, "Inqiroz davri,, "Og'ir davr,, kabi sinonimlar bilan ataladi. O'smirlik davrining og'ir, murakkab davr ekanligi ko'plab psixologik, fiziologik, ijtimoiy omillar bilan bog'liq. Bu davrda bolada rivojlanishning barcha jihatlari: aqliy, jismoniy, axloqiy, ijtimoiy tomondan o'zgaradi. O'smirlik davrida eng katta muammolardan biri endi u "Bola emas", va shu bilan birga hali "Katta" ham emas. Uning o'ziga va atrofdagilarga bo'lgan munosabati ham o'zgarib ketadi. Qiziqishlari, hohishlari, ijtimoiy yo'nalganlari qaytadan shakllanadi. O'zini o'zi anglashi, baholashi, qadriyatlari keskin o'zgaradi. Jismoniy o'zgarishlarida esa bo'y o'sishi tezlashadi, jinsiy balog'at boshlanadi, tashqi ko'rinishda sezilarli darajada o'zgarishlar yuz beradi. Gipofiz bezining vazifalari faollashadi, qalqonsimon bez, jinsiy bezlar va sekretsiya bezlari ishlashi kuchayadi. O'smirlik davrida o'zlikni anglash juda muhim jarayon hisoblanadi. Bu bosqichda o'smir o'zini boshqalar orasida topishga, shaxs sifatida shakllanishga intiladi. O'z hissiyotlariga ko'proq e'tibor beradi, kayfiyati tez tez o'zgaradi, shaxsiy sirini saqlay boshlaydi. Shuning uchun bu davrda ota-ona, o'qituvchi va atrofdagila tomonidan mehr, qo'llab-quvvatlash va to'g'ri yo'naltirish juda muhim. Bu paytda ota onalar bolalari bilan muloqotni yaxshilashi, jazo qo'llayotkanda ham konstruktiv uslubni qo'llashlari lozim. O'smirlik davrida ko'pincha ota ona bilan kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Bu jarayonda kattalar sabr-toqati, mehribonligi va to'g'ri yo'naltirishi judayam muhim. O'zini anglash hamda o'zini idrok etish muammosi psixologiyada eng qiyin muammolardan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar ta'kidlashlaricha, erta yoshdan boshlab bolalar o'zlariga - tanasiga, harakatiga, tashqi ko'rinishiga, shuningdek atrofdagi odamlarga va ularning munosabatlariga alohida qiziqish bilan qarashadi. O'zi haqida shakllangan g'oyalar bolaning odamlar bilan kattalar va

tengdoshlar munosabatlarining shakllanishiga hamda bolalar faoliyatining barcha turlarini rivojlanishiga ta'sir qiladi. Psixologiyada o'zini anglash hamda o'zini idrok qilish muammosiga katta e'tibor qaratildi. Psixologlar K.A. Abulxanova, B.G. Ananyeva, A.S. Arsentieva, R. Berns, A.A. Bodaleva, A.V. Ivaschenko, I.S. Kon, K. Levin, A. Maslou, K. Rojers, S.A. Rubinshteyn, A.N. Slavskoy, E. Elkonin va boshqalar shu muammo ustida tadqiqotlar olib bordilar. Maktabgacha yosh - bu inson hayotidagi o'ziga xos davr. Bu davr atrofdagi dunyoni faol bilish vaqti, odamlar o'rtasidagi munosabatlarning ma'nosi, ob'ektiv va ijtimoiy dunyo tizimidagi o'zini anglash va idrok etishning rivojlantirish davridir. Maktabgacha yoshda bolaning o'zi haqidagi g'oyalari hamda atrofni idrok qilishi sezilarli darajada o'zgarib boradi: u o'z imkoniyatlarini yanada to'g'ri tasavvur qilishni boshlaydi, boshqalarning u bilan qanday munosabatda bo'lishini tushunadi, bu esa atrofni idrok etish va bilishni keltirib chiqaradi. Maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bolalarda o'zini anglashning boshlang'ich shakllari - bolaning bilishi va uning fazilatlari, imkoniyatlarini baholash hamda o'zi uchun o'z tajribalarini kashf etish rivojlanadi. D.B. Elkonin ta'kidlashicha maktabgacha yoshdagi bola o'zini boshqalar bilan ajratishdan o'zini anglashga, ichki hayotini kashf etishga o'tadi. Bir so'z bilan aytganda o'zini idrok eta boshlaydi. Bolani kattalar va tengdoshlari bilan maxsus tashkil etilgan muloqot jarayoniga qo'shilishi bolalarning o'zlari haqidagi g'oyalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi nafaqat uning aqliy va jismoniy tayyorgarligi, balki shaxsiy va ijtimoiy psixologik tayyorgarligiga ham bog'liq. Maktabga o'qish uchun kelayotgan bola yangi ijtimoiy mavqeini turli majburiyatlari va huquqlari bo'lgan va unga turli talablar qo'yiladigan o'quvchi mavqeini olish uchun tayyor bo'lishi lozim. Tayyorlov guruhi yoshdagi bolalar asosan maktabda o'qish uchun ehtiyoj sezadilar, lekin bu xohish va ehtiyoj motivi turlicha bo'lishi mumkin. "Menga chiroyli forma va daftar, qalam, ruchkalar sotib olib berishadi", "Maktabda o'rtoqlarim ko'p bo'ladi va men ular bilan mazza qilib o'ynayman", "Maktabda uxlatishmaydi" kabi. Maktab tashqi ko'rinishlari shubhasiz bolalarni juda qiziqtiradi, lekin bu maktabda muvaffaqiyatli o'qish uchun asosiy motiv bo'la olmaydi. "Men otamga o'xshagan bo'lishim uchun o'qishim kerak", "Yozishni juda yaxshi ko'raman", "O'qishni o'rganaman", "Maktabda qiyin misollarni yechishni o'rganaman" ushbu xohish va harakat bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi uchun tabiiy ravishda asos bo'la oladi. Bolaning endi o'zini katta bo'lganini, bog'cha bolasi emas, balki ma'lum bir majburiyatlari bor bo'lgan o'quvchi bo'lishini anglashi, jiddiy faoliyat bilan shug'ullanayotganligini bilishi nihoyatda muhim. Bolaning maktabga borishini istamasligi ham salbiy holat hisoblanadi. Maktabga shaxsiy va ijtimoiy-psixologik tayyorgarlik bolalarda tengdoshlari, o'qituvchilari bilan munosabatga kirisha olish xususiyatini shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Har bir bola jamoaga qo'shila olishi, ular bilan hamkorlikda harakat qila olishi, ba'zi vaziyatlarda ularga yon bosib, boshqa vaziyatlarda yon bosmaslikka harakat qilish kerak.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mukhamedova, D., Rakhimova, I., Majidov, N., Abdullayev, B., & Nigmatullina, L. (2020). Psychological aspects of addiction to social media, computer and computer games. International Journal of Psychosocial Rehabilitation Маслоу А. Психология бытия. // Пер. с англ. О.О. Чистякова. Рефл-бук: Ваклер, 1997.-84 с 3.

2. Raximjonovna, U. N. (2023). O 'SMIR YOSHIDAGI O 'QUVCHILARDA "TARBIYA" FANINI O 'QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O 'RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities,
3. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O 'QISH SAVODXONLIGINI O 'RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century
4. M.EAbdurahmonova. "O'smirlik davri psixik rivojlanish xususiyatlari".